



## O'ZBEK TILIDAGI SINONIMLAR VA ULARNING MATNDAGI BADIY ROLI

Jumamuratova Ruxshona,  
Nukus davlat pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15803110>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> June 2025  
Accepted: 25<sup>th</sup> June 2025  
Published: 30<sup>th</sup> June 2025

### KEYWORDS

*Sinonim, badiiy matn, uslubiy rang, leksik ma'no, emotsional ohang, tasviriy vosita.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada o'zbek tilidagi sinonimlar va ularning badiiy matnlardagi funksional vazifalari keng yoritilgan. Sinonimlarning leksik, uslubiy va emotsional imkoniyatlari tahlil qilingan. Badiiy adabiyotda sinonimlarning obraz yaratish, emotsional ta'sir kuchini oshirish va matnni jonlashtirishdagi o'rni misollar asosida yoritilgan. Maqolada taniqli adiblarning asarlaridan namunalar keltirilib, sinonimlarning matndagi uslubiy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.*

O'zbek tili o'zining boy leksik zaxirasi, badiiy ifoda vositalarining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu til nafaqat aloqa, fikr almashish vositasi, balki milliy ong va tafakkurning aksidir. Ayniqsa, o'zbek adabiy tili o'z taraqqiyot jarayonida turli uslubiy, semantic va fonetik imkoniyatlarni o'zlashtirib, hozirgi holatiga yetib kelgan. Shunday bo'ylab qatlamlardan biri bu – sinonimlardir. Sinonimlar tilimizda mazmunan yaqin, ammo shaklan har xil bo'lgan so'zlardir. Ular orqali bir fikr turli ohang, rang va emotsional tusda ifoda etilishi mumkin<sup>1</sup>.

Sinonimlar o'zbek tili leksikologiyasining eng murakkab va rang-barang qatlamlaridan biridir. Ular tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi, matnga hayotiylik, obrazlilik, tasviriy kuch olib kiradi. Badiiy adabiyotda sinonimlardan foydalanish yozuvchining til ustida ishlash mahoratini, uslubiy didini, emotsional ta'sir kuchini ifodalovchi asosiy belgilaridan biridir<sup>2</sup>. Masalan, "jasur" degan so'z sinonimlari qatoriga "qo'rqmas", "shijoatli", "botir", "qahramon" kabi so'zlar kiradi. Har biri umumiy ma'noda jur'atlilikni anglatadi, ularning uslubiy vazifasi turlicha bo'lishi mumkin<sup>3</sup>.

O'zbek adabiyotining yirik vakillari – Abdulla Qodiriy, Oybek, Mirtemir, Uyg'un, Erkin Vohidov kabi ijodkorlarning asarlarida sinonimlar keng qo'llangan. Ular orqali qahramon xarakteri ochiladi, voqea-hodisalar tasvirlanadi, kayfiyat va emotsional fon yaratiladi.

Sinonimlarning matndagi badiiy roli, avvalo, takrorlarning oldini olishda ko'rinadi. Matnda bir so'zning qayta-qayta ishlatilishi uni zerikarli, sun'iy ko'rsatishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun yozuvchi yoki shoir sinonimlardan foydalanadi. Bu holat ayniqsa she'riy matnlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunos olimlar sinonimlarning o'zbek tilidagi shakllanish mexanizmlarini o'rganib, ularni leksik sinonimlar, uslubiy sinonimlar va frazeologik sinonimlar kabiturlarga ajratadilar. Leksik sinonimlar shaklan har xil, ma'nosi yaqin so'zlardir. Uslubiy sinonimlar esa uslubiy yuklamasi bilan ajraladi. Frazeologik sinonimlar esa iboralar shaklida keladi: "ko'z yoshi to'kdi" – "yig'ladi" – "qalbi ezildi" – bu ifodalar bir-birini almashtiruvchi, ammo badiiy tusga ega vositalardir.

<sup>1</sup> Mirtojiev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – B. 211.

<sup>2</sup> Jo'rayev N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 185.

<sup>3</sup> Axmedova D. Sinonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2007. – № 3. – B. 54-58.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sinonimlar o'zbek adabiy tilining eng muhim va zarur qatlamlaridan biridir. Ular orqali yozuvchi so'zga nafis pardo beradi, obraz yaratadi, nutqqa jonli ohang bag'ishlaydi. Sinonimlar matnning uslubiy, semantik va emotsional darajasini oshirish bilan birga, tilning badiiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shuning uchun o'zbek tilidagi sinonimlarni o'rganish, ularning matndagi badiiy rolini tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy-ijodiy vazifadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirtojiyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – B. 211.
2. Jo'rayev N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 185.
3. Axmedova D. Sinonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2007. – № 3. – B. 54-58.
4. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Erkin Vohidov. Tong nafasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.

